



QORAQALPOQ TASVIRIY SAN’ATI VA BAZARBAY SEREKKEEV IJODIDA BADIY YO‘NALISHLARNING RIVOJLANISHI

Baybosinova Seniya Sarsenbaevna,
s.f.f.d. (Phd)

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi
ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
2-kurs mustaqil izlanuvchisi (Dsc)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19603575>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq tasviriy san’ati tarixiy rivojlanish kontekstida tahlil qilinib, uning zamonaviy shakllanishi Bazarbay Serekeev ijodi orqali yoritiladi. Tadqiqot arxeologik, etnografik va amaliy san’at manbalarini Serekeevning ijodiy faoliyati bilan bog‘laydi. Maqolada Serekeev asarlaridagi milliy identitet, folklor motivlari, rang va naqsh tizimi, shuningdek, ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq tasviriy san’ati, Bazarbay Serekeev, milliy madaniyat, an’anaviy san’at, badiiy tafakkur, rangtasvir, dekorativ san’at, ijtimoiy funksiyalar, ijodiy jarayon, tarixiy xotira, milliy.

Annotation. In this article, Karakalpak fine art is analyzed in the context of historical development, and its modern formation is illuminated through the work of Bazarbay Serekeev. The research connects archaeological, ethnographic, and applied art sources with Serekeev's creative work. The article scientifically analyzes national identity, folklore motifs, color and pattern systems in Serekeev's works, as well as their role in the socio-cultural life of society.

Keywords: Karakalpak fine arts, Bazarbay Serekeev, national culture, traditional art, artistic thinking, painting, decorative art, social functions, creative process, historical memory, national.

Qoraqalpoq tasviriy san’ati qadimgi davrlarga borib taqaladi va hududning arxeologik hamda etnomadaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Amudaryo quyi oqimi hududida topilgan arxeologik yodgorliklar – devoriy rasmlar, sopol buyumlar bezaklari, naqshli tosh va yog‘och ishlanmalar – bu hududda qadimdan rivojlangan tasviriy tafakkur mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Qoraqalpoq tasviriy san’ati Markaziy Osiyo madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning tarixiy, ijtimoiy va estetik qarashlarini ifodalaydi. Tasviriy san’at xalq hayotining barcha qirralarini vizual til orqali bayon etadi va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni aks ettiradi. XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida tarixiy madaniy yodgorliklar arxeolog olimlar tomonidan o‘rganila boshlaydi. Rassomlar tarixiy yodgorliklar o‘rganilish jarayonida plenerlarda bo‘lib rangli asarlar yaratadi. Maqsad arxeologik ilmiy tadqiqot jarayonida topilgan yodgorliklarning asl xolicha tasvirlab olish edi. Shu bilan birga teatrlashgan sahna bezagini spektakl mavzuiga mos ravishda tasvirlab, ko‘chma kontsert sahnalarining bezaklarini, kontser va teatrdan nomoyish etiladigan spektakllarning rangli afishalarniyaratib, adabiyotlarga, bolalar ertak kitoblariga



rangli va rangsiz illyustratsiyalar ishlab chiqish rivojlana boshladi. Rossiyadan ko‘plab rassomlar Qoraqalpog‘istonga ekspeditsiyag‘a keledi. O‘lar B.D.Kamenov, P.Radimov, A.K.Ladur va boshqa rassomlar ijod qila boshladi. Ikkinchi jahon urshi tugagach rassomlar F.Madgazin, V.Margunov, A.Biryukov, N.Grinev, I.Mikulitskin, A.Lazkolar Qoraqalpog‘istonga kelib tasviriy san‘at yo‘nalishida ijodini davom ettirdi. Mazkur rassomlar tasviriy san‘atning kitob grafikasi, poligrafiya (grafika turlari), rangtasvirning barcha janrlarida ijod qildilar. Qoraqalpog‘istonning mahalliy yosh rassomlari tashrif buyirgan sayyoh rassomlar ijodi bilan yaqindan tanishib, o‘lar bilan fikr almashdilar va kerakli bilimlarini oldi. [1,B.36] Qoraqalpog‘iston tasviriy va amaliy san‘atining rivojlanishiga hissa qo‘shgan rassomlar Q.Saypov, M.Imanov, Q.Berdimuratov, A.Erimbetov, M.Qudaybergenov, J.Quttimuratov, D.Toreniyazov, J.Izentaev, B.Serekeev, J.Lepesovlar hisoblanadi. Mazkur rassomlar ijodi davomida yaratgan asarlarida ona vatan tuyg‘usini rangli koloridi asosida tasvirlagan.

Keyingi davrlarda Qoraqalpog‘istonning tasviriy san‘ati yuqori darajada rivojlana boshladi. Rassomlar ijodlaridagi asarlar obrazlarini va boshqa kompozitsion echimlarni ona tabiat, xalq orasidan izlardi. Shu bilan birga qoraqalpoq rassomlari ijodlarida Evropa san‘atining ta‘sirini ko‘rish mumkin. Ayniqsa impressionizm, postimpressionizm, kubizm, abstraksionizm va puantalizmning ta‘sirida milliy koloridni bog‘lagan holda asarlar yaratadi. Zamonaviy badiiy uslublar ham rassomlar ijodiga o‘z tasirini ko‘rsatadi. Mustaqillik davrida samarali ijod qilgan rassomlardan biri Bazarbay Serekeev hisoblanadi. rassomning asarlarida ona tabiat go‘zalligi, xalq urf-odatlarini, tarixiy motivlar, shuningdek, an‘anaviy rang tizimi yangicha badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan. Boshqa tomondan, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzi an‘anaviy san‘at shakllarini, jumladan gilamdo‘zlik, kashtachilik, kulolchilik va yog‘och o‘ymakorligini rivojlantirdi. Ushbu yo‘nalishlar san‘atning kundalik hayot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bazarbay Serekeev 1942-yil **Kegeyli tumani, Xalqabad posyolkasida** tavallud topgan. 1959-yilda Xalqabad o‘rta maktabini tamomlagan va shu yili **Taxiatash qurilish texnikumiga** o‘qishga kirib, 1961-yilda tamomlagan. Qurilish sohasida ish boshlagan bo‘lsa-da, bolaligidan san‘atga qiziqishi kuchli bo‘lgan. Serekeev **Nukus shahridagi Madaniyat uyidagi rassom D.Mikulitskiy to‘garagiga** qatnashgan va ikki oy o‘qigan. 1962-yilda u Toshkent shahridagi **P.Benkov nomidagi San‘at bilim yurtiga** o‘qishga kirgan. 1963–1966-yillarda u **armiyada xizmat qilgan**, xizmatdan qaytgach, o‘qishni davom ettirib 1969-yilda bitirgan va **Nukus shahridagi rassomlar ustaxonasida** ishlay boshlagan. 1970-yillardan Serekeev **mahalliy va respublika ko‘rgazmalarida** faol qatnasha boshlagan, shuningdek, **Toshkent, Moskva, Olma-Ota va Ufadagi ko‘rgazmalarda** ishtirok etgan. Uning asarlari **Angliya, Frantsiya, Germaniya, Italiya va Rossiyadagi** shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi. 1978-yilda Serekeev **O‘zbekiston rassomlar uyushmasi** a‘zosi bo‘lgan. 1984-yilda «Nevara», «Traktorchilar», «Qizil uy» asarlari uchun **Berdaq nomidagi davlat mukofoti** bilan



taqdirlangan. 1998-yilda **O‘zbekiston Badiiy akademiyasi a‘zosi**, 2000-yilda «Do‘stlik» ordeni, 2002-yilda **Qoraqalpog‘istonga xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi** unvoni, 2015-yilda **Qoraqalpog‘iston xalq rassomi** unvoni bilan mukofotlangan. Serekeevning ijodi an‘anaviy tasviriy-amaliy san‘at elementlarini zamonaviy badiiy ifoda bilan uyg‘unlashtirilgan. [2, B.22]

Rassomning bugungi kunda rangtasvir asarlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi kolleksiyasida saqlanib kelmoqda. B.Serekeev tasviriy san‘atning portret, mayshiy, manzara janrlarida va etnografik tematikada ko‘plab asarlar yaratgan. Shu bilan birga rassom asarlarida postimpressionizm tasirini ham ko‘rish mumkin. Rassomning etnografik tematikada ishlangan muzey kolleksiyasida saqlanayotgan “Naqshli boyra tuqiyotgan kelinchak” deb nomlangan asari kompozitsiyasida milliy hayot tarzini, ayniqsa qoraqalpoq xalqining an‘anaviy turmushini badiiy ifoda etgan yorqin namunadir. Kartinada qishloq manzarasi tasvirlangan bo‘lib, unda oddiy insonlarning kundalik hayoti aks ettirilgan. Asarning markazida rang-barang iplar bilan boyra to‘qiyotgan ayol tasvirlangan bo‘lib u qo‘l mehnati bilan shug‘ullanayotganini ko‘rish mumkin. Bu obraz orqali rassom qoraqalpoq ayollarining mehnatsevarligi, sabr-toqati va milliy hunarmandchilikka bo‘lgan mehrini ko‘rsatadi. Kompozitsiyaning orqa fonida bo‘lsa o‘tov tasvirlangan bo‘lib u orqali qoraqalpoq xalqining yashash tarzi va madaniyatini ko‘rish mumkin. Shuningdek, o‘tov oldida kata yoshdagi inson va yosh bola tasvirlangan bo‘lib, bu oilaviy iliqlik, mehr-muhabbat va avlodlar davomiyligini ifodalaydi. Mazkur obrazlar asarga hayotiylik va harakat baxsh etadi. Rassom rang tanlashda juda mohirona yondashgan. Iliq, tabiiy ranglar – sariq, jigarrang va qizil ohanglar asarga iliqlik va samimiylilik beradi. Ayniqsa, boyradagi naqshlar amaliy bezak san‘atining go‘zalligini namoyon etadi. Yorug‘lik va soyalar uyg‘unligi esa tasvirga chuqurlik kiritgan. Kompozitsiya jihatidan asar muvozanatli ishlangan: oldingi plandagi obrazlar aniq va yorqin, orqa fon esa sokin va keng tasvirlangan. Bu esa tomoshabinning diqqatini asosiy qahramonlarga qaratadi. Xulosa qilib aytganda, B. Serekeev ushbu asari orqali qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, urf-odatlarini va ma‘naviy qadriyatlarini yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirgan. Asar tomoshabinda iliq tuyg‘ular uyg‘otadi va milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatni oshiradi.[3, B.1] B. Serekeev ijodi qoraqalpoq tasviriy san‘atida milliy rangtasvir an‘analari va zamonaviy badiiy izlanishlar uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Rassomning “Bobolar yurgan yollarda” deb nomlangan asarida Qoraqalpog‘iston hududidagi karvon yollarining rivojlanganligini umumiy ranlar falsafasi bilan tasvirlagan. Mazkur asar manzara janriga mansub bo‘lib, unda tog‘li hudud manzarasi umumlashgan holda, badiiy-estetik talqin orqali ifodalangan. Asarning kompozitsion tuzilishida Chilpiq, tog‘lar karvonli tuyalarni ko‘rish mumkin. Birinchi plan nisbatan umumlashtirilgan shakllar orqali berilgan bo‘lsa, o‘rta plan va fon qismida tog‘ tizmalari ketma-ketlikda joylashtirilib, fazoviy chuqurlik hosil qilingan. Bu usul rassomga kenglik va masofa illuziyasini yaratish imkonini bergan. Kompozitsiyada diagonal yo‘nalishlar ustun bo‘lib, ular tomoshabin nigohini rasm



ichkarisiga, ya'ni markaziy tog' massiviga yetaklaydi. Rang yechimi asarning muhim badiiy komponentlaridan biridir. Rassom issiq va sovuq ranglar kontrasti orqali tabiiy muhitning turli holatlarini ifodalagan. Sariq, och jigarrang va och yashil ranglar yer yuzasining yorug' qismlarini aks ettirsa, binafsha va ko'kmtir ohanglar tog'larning soyali tomonlarini ifodalashda qo'llanilgan. Bu esa rang perspektivasi tamoyilining muvaffaqiyatli qo'llanilganini ko'rsatadi. Asarda yorug'lik masalasi ham muhim o'rin tutadi. Yorug'lik manbai aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, umumiy yoritilish muhiti xarakterga ega bo'lib, bu impressionistik unsurlarni eslatadi. Yorug'lik va soya o'rtasidagi nozik o'tishlar shakllarning hajmiyligini kuchaytiradi va tasvirga jonlilik bag'ishlaydi. Badiiy ifoda vositalari jihatidan rassom umumlashtirish va stilizatsiya usullaridan foydalangan. Tabiat detallarini aniq chizib berishdan ko'ra, ularning umumiy kayfiyati va ritmini yetkazishga urg'u berilgan. Bu esa asarni nafaqat realistik, balki ma'lum darajada ekspressiv ruhda talqin qilish imkonini beradi. Mazkur asar semantik jihatdan inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini ilgari suradi. Tabiatning keng va ulug'vor ko'rinishi insonning undagi o'rnini kichik, ammo muhim bir qism sifatida anglashga undaydi. Shu orqali rassom ekologik va estetik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, rassomning ushbu asari kompozitsiya, rang va yorug'lik yechimlarining uyg'unligi orqali peyzaj janrida yuqori badiiy darajaga erishgan. Asar nafaqat vizual estetik zavq bag'ishlaydi, balki chuqur falsafiy mazmuni bilan ham ahamiyatlidir. B. Serekeev ijodi qoraqalpoq tasviriy san'atida rangtasvirni milliy an'analar, urf odatlar, xalq amaliy bezak san'atini ranlar uygunligi bilan yaratilgan asarlari talqini bilan ajralib turadi. U o'z asarlarida ko'proq rang yechimlariga, fazoviy kenglik, obrazlarning dinamikasi, yaratilgan asarlarining rang tizimiga ahamiyat bergan. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi kolleksiyasida turli janrlardagi, milliy mavzularda, realistic uslubdagi 32 dona asari saqlanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda Qoraqalpoq tasviriy san'ati murakkab tarixiy rivoj yo'lini bosib o'tgan va bugungi kunda ham dinamik tarzda rivojlanmoqda. Bazarbay Serekeev ijodi qoraqalpoq rangtasvirining rivojlanishga o'z hissasini qo'shgan rustoz rassom hisoblanadi. Uning asarlari milliy merosni saqlash, tarixiy xotirani uzluksiz uzatish va estetik tafakkur rivojida muhim rol o'ynaydi. Ilmiy yondashuv asosida qoraqalpoq tasviriy san'ati va B.Serekeev ijodini o'rganish, ularni zamonaviy global jarayonlarga moslashtirish va yosh avlodga yetkazish madaniy merosni asrash va rivojlantirish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Алламуратов. Қарақалпақстан көркем өнер тарийхы, Н., 1968
2. Sahro palitrasidan yaralgan Qoraqalpoq tasviriy san'atining badiiy ta'limdagi o'rni Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya , N., 2025
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi AKT № 3,15 asosiy saqlash fondi.
4. Амудария журналы, Н., б. 11., 1987